

RAQAMLI IQTISODIYOTDA KORXONALARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BOSHQARISH

Mamatov O'tkir Botir o'g'li

*Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi Jizzax viloyati boshqarmasi
bo'limi bosh taftishchisi*

mamatovutkir689@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda samarali boshqarish tizimini takomillashtirish, korxona moliyaviy holatini yaxshilash va uning holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning o'zaro mutanosibliigi o'rganilgan. Shuningdek korxona moliyaviy barqarorligining iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sirini aniqlash bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: *raqamli iqtisodiyot, moliyaviy barqarorlik, bozor tendensiyalari, raqamli kompetensiyalar, samarali boshqaruv.*

УПРАВЛЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ СТАБИЛЬНОСТЬЮ ПРЕДПРИЯТИЙ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

Маматов Уткир Батир угли

Управление инспекции государственного финансового контроля по Джиззакской области, главный инспектор отдела

mamatovutkir689@gmail.com

Аннотация: В данной статье изучено совершенствование системы эффективного управления обеспечением финансовой устойчивости предприятий в условиях цифровой экономики, улучшение финансового состояния предприятия и взаимоувязка показателей, характеризующих его состояние. Также выдвинуты научно-практические предложения по определению положительного влияния финансовой устойчивости предприятия на экономический рост.

Ключевые слова: *цифровая экономика, финансовая стабильность, рыночные тенденции, цифровые компетенции, эффективное управление.*

IMPROVING FINANCIAL SUSTAINABILITY OF ENTERPRISES IN THE DIGITAL ECONOMY

Mamatov Utkir Botir ugli

*Jizzakh Regional Office of the Inspectorate of State Financial Control
Chief Auditor of the Department*

mamatovutkir689@gmail.com

Abstract: This article studies the improvement of the system of effective management of ensuring the financial stability of enterprises in the digital economy, improving the financial condition of the enterprise and the interconnection of indicators characterizing its condition. Scientific and practical proposals were also put forward to determine the positive impact of the financial stability of the enterprise on economic growth.

Key words: *digital economy, financial stability, market trends, digital competencies, effective management.*

KIRISH

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni erkinlashtirish davrida raqamli iqtisodiyot va u bilan bogʻliq boʻlgan bir qancha samarador texnologiyalar, bundan tashqari uning asosida korxonalarining moliyaviy barqarorligini taʼminlashda samarali boshqarish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda, davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida, bu borada bir qator muhim qonunlar, qarorlar ham qabul qilingan.

Bu borada Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti koʻrsatib berganidek “Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilanishini koʻzda tutadigan “Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasi”ni ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda “Raqamli Oʻzbekiston-2030” dasturini hayotga tadbqiq etishimiz zarur. Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga oʻstirish, korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar oʻtkazgan tahlillar ham buni tasdiqlamoqda. Shuning uchun Hukumatga ikki oy muddatda raqamli iqtisodiyotga oʻtish boʻyicha “yoʻl haritasi”ni ishlab chiqish topshiriladi. Bu borada axborot havfsizligini taʼminlashga alohida eʼtibor qaratish zarur” [1].

Shu oʻrinda taʼkidlash lozimki, iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish, uni boshqarishning taʼsirchan choralarini qoʻllash borasida davlat tomonidan keng koʻlamli chora-tadbirlar koʻrilmoqda, elektron hujjat aylanishi tizimlari joriy etilib, toʻlovlarning ham elektron koʻrinishlari rivojlanmoqda va elektron tijorat sohasidagi normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda. Mazkur tizimning oʻzgarib borishi korxonalar moliyaviy barqarorligini boshqarishga ham salmoqli taʼsir koʻrsatadi, jumladan raqamlashtirish moliyaviy jarayonlarda maʼlumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishda oʻziga xos oʻrin egallaydi. Moliyaviy barqarorlikni ilgʻor tahlil va biznes

razvedka vositalari orqali tashkilotlarga ma'lumotlar to'plamidan amaliy tushunchalar olish imkonini yaratadi. Mazkur moliyaviy tushunchalar moliyaviy qarorlar, samarali boshqarish, bashoratlash, korxona moliyaviy holatini samaradorligini oshirish haqida ma'lumotlarni uzatadi. Bu ma'lumotlar esa tashkilotlarga bozor tendensiyalariga moslashish va ularning moliyaviy maqsadlariga moslashish imkoniyatini yanada oshiradi. Olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib, ta'kidlash lozimki, korxona, tashkilotlar raqamli moliyaviy nazorat tizimlariga o'tishda amaldagi mavjud eski tizimlar asosida o'rnatilgan cheklovlarni bekor qilishi, zamonaviy texnologiyalarni o'rnatilgan jarayonlarga salbiy ta'siri ko'rsatmasdan yoki ma'lumotlar yaxlitligini buzmasdan uzluksiz ravishda raqamlashtirish usullarini kengaytirishni boshqarishga erishish muhim bo'lib bu tadqiqot ishining dolzarbligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xorijiy olimlarning fikricha "Raqamli iqtisodiyot axborot texnologiyalari va ma'lumotlarga ko'p tayanadigan muhim innovasion drayverdir. Bu, shuningdek, yaqinda rivojlanayotgan segmentga o'xshaydi. Vaqt o'tishi bilan paydo bo'lgan raqamli iqtisodiyotning turli xil ma'nolari bir nechta tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan [2, 122-129]. Raqamli iqtisodiyot deganda, iqtisodiyotni raqamlashtirish yoki iqtisodiyotning turli tarmoqlarini raqamli texnologiyalar bilan ta'minlash tushuniladi [3, 219-223].

MDH davlatlari olimlaridan ba'zi birlari moliyaviy nazoratni korxona erishgan natijalarni nazorat qilish uchun axborot bilan ta'minlovchi boshqaruv vositasi deb hisoblaydilar. Jumladan, E.V.Mnich "...nazorat ostida vakolatli shaxslarning tartibga solinadigan faoliyatini tushunish kerak, bu nazorat qilinadigan subyektning nazorat ob'yektiga nisbatan xulqatvor qoidalariga qanchalik rioya qilishini aniqlash bo'yicha harakatlarning ma'lum bir ketma-ketligi bo'lib, natijada aybdor shaxslarni javobgarlikka tortuvchi huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishga olib kelishi mumkin" deb ta'kidlaydi [4]. Bu fikrlarni davom ettirgan V.V.Glushenko va A.V.Kmelkov esa "...moliyaviy nazoratni o'rta, joriy (operativ) va keyingi (retrospektiv, yakuniy)"ga bo'lishni taklif qiladilar [5].

Samarali boshqarish tizimi bevosita "Xo'jalik moliyaviy nazorati (xo'jalik yurituvchi subyektning mulkdori yoki boshqaruv organining nazorati) mulkdorning organlari (boshqaruv organi) – bo'linmalari, ularning moliya-xo'jalik xizmatlari orqali mulkdor (boshqaruv organi) tomonidan belgilangan doirada amalga oshiriladi yoki auditorlik tashkilotlarini (auditorlarni) jalb qilish orqali qonun hujjatlariga muvofiq auditorlik faoliyatini amalga oshirish huquqini beradi"[6, 59-60].

Bu borada N.D.Brovkinaning yondoshuvi muhim: "Moliyaviy nazorat organlarining vazifasi, birinchi navbatda, davlat qonunlari va Prezident farmonlari ijrosining qonuniyligi, to'g'ri va maqsadga muvofiqligi, davlat tomonidan

ajratilayotgan byudjet mablag'larining yo'naltirilganligi, hukumat va uning organlari faoliyati samaradorligini tekshirishga qaratilishi kerak va barcha darajadagi davlat mablag'larini tejamkorlik bilan sarflash, moliyaviy va moddiy resurslarni boshqarish me'yorlarini to'g'ri belgilashdan iborat bo'lib, boshqa barcha og'ishlarni tuzatish va bartaraf etish zarur" [7, 286].

Mahalliy olimlardan A.V.Vahobov va T.S.Malikovlar moliyaviy nazoratni barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatini nazorat qilish ekanligini deb ifodalaydilar. "(Davlat, korxona va tashkilotlar) turli darajadagi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek, maxsus tashkil etilgan institutlar tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy nazorat deb ataladi. Bu nazorat, eng avvalo, mablag'larni shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida moliya-xo'jalik qonunchiligiga rioya etilishi, moliyaviy xo'jalik operatsiyalarining samaradorligini baholash hamda sarflangan xarajatlarning maqsadga muvofiqligini nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, nazorat faqat ma'lum bir moliyaviy harakatning sodir bo'lishini baholashni o'z ichiga olganligi bilan cheklanmaydi, balki o'ziga xos tahliliy yo'nalishga ega" [8, 19].

Bu fikrga qo'shilgan mahalliy olimlar esa "Moliyaviy nazorat – ularning faoliyatini tahlil qiluvchi mas'ul organlarning faoliyati samaradorligini oshirish, faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy aylanmasini belgilangan qonun hujjatlari doirasida ta'minlash va ularni yanada takomillashtirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan takliflar ishlab chiqish" deb hisoblaydilar [9, 1-4].

METODOLOGIYA

Mazkur maqolani yoritishda mantiqiy va taqqoslash tahlili, tadqiqotni o'rganishga tizimli yondashuv, tahlil va sintez usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqotlarga asoslanadigan bo'lsak, moliyaviy natijalar xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini baholash uchun hal qiluvchi vosita sifatida qaralayotganligi guvohi bo'ldik. Ular rentabellik, samaradorlik va umumiy moliyaviy holatini baholash uchun miqdoriy asosni ta'minlaydi. Moliyaviy natijalar, xususan, sof daromad va foyda marjasi kabi rentabellik ko'rsatkichlari keng o'rganiladi. Iqtisodchilar rentabellikka hissa qo'shadigan omillarni va uning aksiyadorlar daromadiga ta'sirini o'rganadilar. Ular turli sohalar va biznes modellari moliyaviy natijalarga qanday ta'sir qilishini va kompaniyalar rentabellikni maksimal darajada oshirish uchun foydalanadigan strategiyalarni o'rganadilar. Iqtisodiyotda moliyaviy barqarorlik korxona boshqaruvida umumiy barqarorlikning uzviy tarkibiy bir qismi bo'lib, u korxonaning ma'lum davr mobaynida o'z faoliyatini tashkil etishga imkon beruvchi mablag'larning mavjudligi, moliyaviy oqimlarning balanslilikidir.

Shu o'rinda uning iqtisodiy mohiyati moliyaviy tizimning, ya'ni moliya muassasalari, bozorlar va bozor infratuzilmalarining ehtimoliy shoklar va nomutanosibliklarga bardosh bera olishi, shu bilan birga moliyaviy vositachilik funksiyalarini bajara olmaslik ehtimolini pasaytirish qobiliyati hisoblanadi. Samarali boshqaruvda moliyaviy barqarorlikning maqsadi sifatida moliya muassasasi emas, balki butun moliya tizimi barqarorligini ta'minlashga asosi bo'luvchi iqtisodiy jarayon tushuniladi. Moliyaviy barqarorlik iqtisodiyotning barqaror rivojlanish asosini tashkil qilib, boshqaruvni samardorligini oshirishda moliyaviy jarayonlarga ko'rsatayotgan ta'sirini o'rganish, tahlil qilish va optimallashtirishda chuqur o'zgarishlar bilan ajralib turadigan o'ziga xos jarayonni ochib beradi. Raqamlashtirishning moliyaviy jarayonlarga ta'siri ko'p qirrali bo'lib, samaradorlik, foydalanish imkoniyati, shaffoflik va strategik qarorlarni qabul qilishni o'z ichiga oladi.

Korxonalarining moliyaviy barqarorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich to'lov qobiliyati bo'lib, "...to'lov qobiliyati - naqd pul mablag'larini to'lov majburiyatlarini o'z vaqtida qaytara olish imkoniyati sifatida baholaydi [10, 124].

Bizningcha, moliyaviy tizimni boshqarish tegishli moliyaviy institutlar, moliya bozorlari uy xo'jaliklari va tadbirkorlik subyektlariga bir maromda ishlayotgan tizimning keskin sustlashishiga yo'l qo'ymasa, iqtisodiyotdagi ishtiroki va uning o'sishi uchun zarur moliyaviy investisiyalar taqdim eta olsagina barqaror o'sib boruvchi jarayonni ifodalaydi. Bunda nobarqaror tizimda iqtisodiy shoklar real iqtisodiyotga noxush ta'sir ko'rsatishi, kreditlashni izdan chiqarishi va kutilganidan ziyod xatarga olib kelishi, bandlikning qisqarishi va iqtisodiy faollikni susaytirishi mumkin.

Boshqarish tizimida korxonalar moliyaviy holati ko'rsatkichlari tizimini absolyut va nisbiy ko'rsatkichlarga bo'lib o'rganish yaxshi samara beradi (1-jadval).

Korxona moliyaviy holatini baholovchi bir qator mutlaq (absolyut) ko'rsatkichlar mavjud. Bular jumlasiga korxonaning to'lov qobiliyati, moliyaviy barqarorligi, korxona balansi yoki aktivlarning likvidlilik darajasi va boshqa qator ko'rsatkichlar kiradi. Ma'lumki, korxona moliyaviy holatini xususiyatlashda absolyut ko'rsatkichlar bilan bir qatorda nisbiy ko'rsatkichlardan ham keng foydalaniladi.

1-jadval

Korxonalar moliyaviy holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning o'zaro mutanosibli

Absolyut ko'rsatkichlar	Nisbiy ko'rsatkichlar
Korxona mulkining qiymati (Umumiy)	Likvidlilik ko'rsatkichlari
Immobilizasiya qilingan mablag'larning qiymati	Korxona sarmoyasi tuzilmasini xususiyatlovchi ko'rsatkichlar
Mobil yoki aylanma mablag'lar qiymati	Foydalilik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar
Moddiy aylanma mablag'lar qiymati	Moddiy mablag'lar samaradorligi ko'rsatkichlari

Korxonaning o'z mablag'lari miqdori	Resurslardan foydalanish samaradorligini xususiyatlovchi ko'rsakichlar
Korxonaning qarz mablag'lari miqdori	O'z (hissadorlik) kapitalidan foydalanish ko'rsatkichlari

Erkin bozor sharoitida raqamlashtirish transformasiyasi daromad darajasini oshirishning noan'anaviy shakllarini ko'paytiradi, masalan, an'anaviy savdodan tashqari raqamli reklama, litsenziyalash, tezkor axborot almashishning o'ziga xos shakllari, platforma orqali to'lovlar, boshqa daromadlar. Samarali boshqarish turli-tuman daromad oqimlarini hisobga olishib, moliyaviy holatning yaxlit ko'rinishini ta'minlash vazifasini ham bajaradi. Bu borada sof daromaddan tashqari rentabellik ko'rsatkichlarini hisobga olib, iste'molchilarning talab va ehtiyojlarini qondirishning turli xil usullarini o'zgartirib borishni talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib, moliyaviy natija xo'jalik yurituvchi subyektning ma'lum bir davrdagi moliyaviy faoliyatidan olingan natijalari, daromadlarni shakllantirish, xarajatlarni boshqarish, rentabellik, likvidlik va tashkilotning umumiy moliyaviy holatining eng yuqori nuqtasini ko'rsatib beradi va tahlil qilinadigan korxonaning foydasini ifodalaydi.

Moliyaviy natija korxona samarali boshqaruvining tizimliliigi, foyda olish, resurslarni samarali taqsimlash va o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashishini oshiradi. Moliyaviy natija strategik rejalashtirish, investisiya qarorlari va me'yoriy hujjatlarga muvofiqlikni boshqaradigan asosiy ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Korxona ishlab chiqarish tizimi faoliyatining yuksak darajadagi natijadorligiga erishish uchun menejment tizimi moliyaviy-iqtisodiy barqarorlikka asoslangan oqilona, to'g'ri strategiya asosida boshqarilishi yaxshi samara beradi va uning moliyaviy barqarorligini uslubiyatini takomillashtirishni talab qiladi.

Olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib, iqtisodiy bo'g'inni strategik boshqarishning muhim tarkibiy qismi sifatida uning joriy faoliyatini tahlil etish hamda kelgusi rivojlanishini istiqbollashtirish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari suramiz:

- tizimli yondoshuv asosida korxona moliyaviy barqarorligi iqtisodiy o'sishiga ta'siri samaralarini baholash va tahlil qilish masalalarini ham qamrab oluvchi takomillashgan o'ziga xos tizim bo'lib bunda moliyaviy natijalar kompaniyaning daromad olish qobiliyatini baholashga yordam beradi va kelajakdagi faoliyatini samarali boshqarishga hissa qo'shadi;

- mamlakatimizda moliyaviy barqarorlikni tashkil etishning zamonaviy tendensiyalarini o'rganishga yangicha yondoshish zarur bo'lib, uni belgilovchi omillar ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilinishi samarali boshqarish tadbirlarini raqamlashtirish komponentlarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi;

- korxona moliyaviy barqarorligining iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sirini aniqlashning amaldagi uslubiyoti tahlili asosida korxonaning moliyaviy natijalariga daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi bog'liqlik katta ta'sir ko'rsatib iqtisodiyotning ochiqqligini kompleks hisobga oluvchi koeffisientlar bilan ayrim holda baholash va omillarni tizimli tadqiq qilish orqali korxona moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimining shakllanishi va samarali faoliyatini ta'minlash bo'yicha uslubiy tavsiyalarni amalda qo'llash lozim;

- raqamli iqtisodiyotda korxona moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimining shakllanishi va samarali faoliyatini ta'minlashning zamonaviy tendensiyalari borasidagi rivojlangan xorijiy tajribalarni o'rganish va undan O'zbekiston sharoitida foydalanish moliyaviy-iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshirish tajribasida qo'l keladi;

-turli omillarning o'zaro aloqadorligini tadqiq etishning yangi konseptual sxemasi asosida korxona moliyaviy barqarorligini boshqarish tizimining shakllanishi va samarali faoliyatini ta'minlashning zamonaviy tendensiyalarini takomillashtirishning o'rta va uzoq muddatli vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan ustuvor loyihalarga e'tibor qaratish lozim.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018-yil 28-dekabrda 2019-yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Lex.uz.

2. Williams L.D. (2021). Concepts of Digital Economy and Industry 4.0 in Intelligent and Information Systems. // International Journal of Intelligent Networks, 2, 122-129.

3. Mukhtorovna N.D. (2021). Importance of Foreign Investments in the Development of the Digital Economy. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2(04), 219-223

4. Mnich E.V., Bardash S.V., Nykonovych M.O., Barabash N.S., Nazarova K.A. Olendiy O. T. 2009. State financial audit: Methodology and organization National University of Trade and Economics Kyiv.

5. Глушченко В.В., Камелков А.В. (2016) Финансиал контрол ин Руссия: весторс оф девелопмент (Финансе) 6 97-103

6. Bystryakov A.Y. (2017) Ways to improve the state financial control in the Russian Federation: definition and justification (Publishing House) 59-60.

7. Бровкина Н.Д. Основы финансового контроля. Учебное пособие. / Под ред. М.В.Мелник. – М.: Магистр, 2010 г. – 286.

8. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumnazariy masalalar. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2008-y. – 316 b. 19.

9. Sholdarov D.A., Navruzova G.O. Davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyati va davlat moliyaviy nazorati tizimini takomillashtirish. // Journal of Economy, Tourism and Service Vol. 2, No. 4, 2023. R. 1-4.

10. Gerasimova V.D. Анализ и диагностика финансово-хозяйственной деятельности промышленного предприятия. М.: KNORUS, 2011.- 124